

O'ZBEK MILLIY KASHTACHILIK SAN'ATI TARIXI VA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

*Buxoro pedagogika kolleji "Maktabgacha ta'lim"
kafedrası "Badiiy-ijodiy faoliyat" o'quv amaliyoti
o'qituvchisi Ortiqova Gulshan Toshpo'latovna*

Annotatsiya: Maqolada kashtachilik san'ati haqida tushuncha, kashta tikishning o'ziga xosligi, vositalari, gul va naqshlardan foydalanish, rang tanlash haqida nazariy ma'lumotlar keltirgan.

Kalit so'zlar: Kashtachilik, hunarmandchilik, milliy qadriyatlar, chambarak, naqsh.

Аннотация: В статье дается представление о понятии вышивки, специфике вышивания, использовании инструментов, цветов и узоров, а также теоретические знания о цвете.

Ключевые слова: вышивка, ремесла, национальные ценности, кольца, узоры

Annotation: The article provides insight into the concept of embroidery, the specifics of embroidery, the use of tools, flowers and patterns, and theoretical knowledge about color.

Key words: Embroidery, handicrafts, national values, rings, patterns.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'atini boy rang barang madaniy merosimizning eng ajoyib qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelgan amaliy bezak san'at asarlari bemisil va betakrorligi bilan butun jahonga mashhur va ma'lum. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'atining shox ildizlari insoniyat bolaligi ya'ni ibtidoiy jamoa tuzimiga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'zbek milliy kashtado'zligi xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan. "Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga e'tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz. 1990 yillarning boshlarigacha bo'lgan davr mobaynida kashtachilik qishloq aholisining kundalik mashg'uloti sifatida saqlangan. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng, u boshqa amaliy bezak bezak san'at turlari kabi bozor ishlab

chiqarish turlariga kiritildi. Hozirda kashtachilik san'ati Buxoro, Samarqand, Toshkent, Urgut shaharlarida Surxandaryo, Qashqadaryo viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida hozirgacha rivojlanib kelmoqda. Ko'p asrlar mobaynida kashtachilikning yirik markazlari Buxoro sanalgan. Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari bo'lajak kelinchak seplari bo'lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya'ni dastro'mol, choyxalta, parda, belbog', sumka, nimcha, joynomoz, gulko'rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so'zana, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg'alarni o'zlari tayyorlashgan. Bu orqali ular mehnatga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatib estetik didga moneliklarini ifodalaganlar. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada kashta tikish bilan ayollar shug'ullanishgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Ish jarayonida ular o'z mahoratlarini oshirishgan, bir biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o'rganishgan.

Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari bo'lajak kelinlik seplari har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, shunchalik qimmatga baholanar edi. Qizlarga 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi. Ular uch-to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar. Kashtachilikning maxsus turlaridan biri – applikatsiyadir. Applikatsiya kashtado'zlikning maxsus turi bo'lib, u o'ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qadab, atrofi choklanadi, applikatsiyada ko'pincha chizma choklardan foydalaniladi.

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o'zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab oyxalta, choy xalta, zardevor, palak, gul-ko'rpag dorpech, bug'joma, parda, belbog', takyanush (yostiq ustiga yopiladigan), Do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynamoz, nimcha, maxsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. Utmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Mamlakatimizning barcha tumanlarida do'ppi tikiladi. Uning Iroqi, Chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma tur, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. Arag'chin – sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmator, iroqi chok usullarida tikiladi. Tus

do'ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, yetalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasi kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki guli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz – yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatiladi. Zardevor – uy jihozi, u sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo'lib, eni 40-70sm uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi. Palak – devorlarga ilinib eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri kizil kirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashxur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Agar oyni ichida sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni, oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak va xokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'l mexnati ko'p bo'lgani uchun so'zana deyila boshlandi. Lekin hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmokda.

Kirpech – tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorning bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

So'zana – igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun u palakdan farq qiladi. So'zana har bir xonadonda bo'lgan, chunki har bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlarning sepi hisoblangan. Kambag'al oilada so'zanani malla, oq bo'zdan,

badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. Soʻzana uchun kompozitsion joylashgan oʻsimliksimon naqshlardan foydalaniladi. Soʻzana oʻrtasida koʻpincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islmiy naqshlar bilan bezatiladi. Soʻzana tikish juda qadimdan rivojlangan, lekin XIX-asrgacha boʻlgan soʻzanalar saqlanmagan. Faqat XIX- asrga oid Samarkand, Buxoro, Nurota, Fargʻona, Uratapa, Shaxrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi soʻzana turlaridan namunalar bor. Sanʼatning bu turi ayniqsa Oʻzbekiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda soʻzana mashinada tikilib kelmokda. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi. Choyshab – forscha-tojikcha roʻyotun chodiri degan maʼnoni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun toʻshak ustidan toʻshaladi. Toʻshak ustidan yopiladigan choyshab ham kashtali oq surp, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan soʻzana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.

Qoʻlda kashta tikish uchun oʻziga xos asboblar boʻladi. Kashtachilikda ninalar, angishvona, qaychi, santimetr lenta, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak (pyalisti) ishlatiladi. Kashtachilikda oq, kul rang, och sariq, och mallarang boʻz, surp, karboz, shoyi, baxmal, chit yoki satin kabi matolar ishlatiladi. Bunday matolarga naqsh kompozitsiyasi chizilganda yaxshi koʻrinadi, rangli iplarning aksariyati unga mos tushadi. Gullar va naqsh kompozitsiyalar chizish uchun chizgʻichlar, yumshoq qalamlar, daftar, albom, oʻchirgʻich, millimetrli qogʻoz, nusxa koʻchiradigan qogʻoz va shaffof qogozlar kerak boʻladi. Chambaraklar gazlamani tarang tortib, soʻngra kashta tikish uchun ishlatiladi. 20 – 40 sm boʻlib, ikkita gardishdan iborat boʻlib, bir - biriniy ichiga tushib turadi. Agar kichik gardish katta gardish ichiga qiyin tushadigan boʻlsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak. Kashtalarning koʻp xillarida umuman chambarak ishlatilmaydi. Kashta tikish uchun choʻziqroq koʻzli kalta (1 va 2 tartibli) ninalar tanlanadi. Chambarak asosan yogʻochdan yasaladi, u doira, kvadrat, toʻgʻri toʻrtburchak shaklida boʻladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yogʻoch dastali ikki xil, yaʼni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun oʻtkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay boʻlishi uchun, ip 50-60 sm dan uzun boʻlmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa, angishvona qoʻllanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga, har xil yoʻllar bilan tushiriladi. Asrlar boʻyi yigʻilib, avloddan avlodga avaylab-asrab kelingan anʼanalar doirasidagi bu poyonsiz boylik, undagi cheksiz xilma xillik bu oʻziga xos xalq sanʼatining bebaho xususiyatini tashkil etadi.

Хулоса

Kashtachilik sirlarini o'rgatishdan avval kashtachilik tarixi, kashtachilikda avval qaysi matolarga tikilganligi hozirgi kunda qanday gazlamalarga tikilayotganligi haqida ma'lumot berish lozim. Kashtachilik qizlarni mehnatga, go'zal milliy qadriyat va urf odatiga oshno etib tarbiyalashda o'z ifodasini topadi. Kashtalar tilini, sirini ongli ravishda tushunish uchun boy, go'zal dunyosini anglashga va bu san'at namunalari yaratgan nozik did egalarining mehnatini qadrlashga o'quvchilarni tayyorlab boramiz. Xalq kashtachiligini o'ziga xos san'at, hunar sifatida o'rganish hozirgi zamon talablaridan biridir.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.K.M. G'ulomov. Amaliy san'at. – Toshkent, 2008.
- 2.Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonova. Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni o'qitish metodikasi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma) – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012.
- 3.O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar). O'zbekiston badiiy akademiyasi. San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti.85-86 bet.
- 4.S.Bulatov.O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.Toshkent -1991 yil.
- 5.T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994yil. .R.Xasanov Amaliy bezak san'ati metodikasi.Toshkent 2003-yil
- 6.Zuxro Obloberdieva «Buxoro kashtachilik san'ati» Buxoro-2002 2. Bulatov S. O'zbekiston xalk amaliy bezak san'ati-T.: Mehnat, 1991 3. Z.Ahmedova “Buxoro kashtalarida Hirot naqshlari” “San'at” № 4 2002 yil.
7. Goncharova P.A. Buxoro Zardo'zlik san'ati. T.: F.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashiryoti , 1986. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T.: Ukituvchi, 1994
8. Jumaev K. Sitorai Moxi Xossa. D: Buxoro nash, 1999. Naymov N. Buxorai Sharif - B.: Buxoro nash, 1997.
- 9.Muhayyo Akromxodjayeva, Ra'no Akromxodjayeva “Kashtachilik” T-2010 yil